

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


22 sentabr, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-22 sentabr, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)


UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda



- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,606% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,544% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,544% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,421% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,304% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,304-8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi 6,012% darajasida bo'ldi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik ko'tarildi va 6,139% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.


SOFR va Euribor AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,14-4,51% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,51% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 4,14% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,016% (3 oylik) va 2,107% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **1011,2** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **194,8** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 344** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib **12 349** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **4,30%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




22.09.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Asaka** bankda qayd etilgan – **12 350** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 360–12 410** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **Agro bank**da qayd etilgan – **12 305** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 300 –12 200** so'm atrofida bo'lgan.


USD-RUB dinamikasi



➤ USD/RUB: kurs barqaror

So'nggi kunlarda USD/RUB kursi barqarorlikni namoyon qilmoqda, dollar uchun 83,2–84 rubl oralig'ida o'zgarib turmoqda. 15 sentyabrdan 19 sentyabrgacha kurs taxminan 84 rubl atrofida ushlab turildi, bu esa valyuta bozoridagi talab va taklifning muvozanatlanganligini aks ettiradi. Rublning barqarorligi energetika mahsulotlari eksportining davom etayotgan oqimi va Markaziy bankning ehtiyotkor monetar siyosati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Regulyator asosiy stavkani keskin o'zgartirmasdan saqlab qolmoqda, bu esa inflyatsiyani nazorat qilish bilan birga kursni tor diapazonda ushlab turishga yordam bermoqda.


RUB-YUAN dinamikasi



➤ Rubl yuanga nisbatan barqaror holatda

15 sentyabrdan 19 sentyabrgacha bo'lgan davrda RUB/CNY kursi nisbatan barqarorlikni ko'rsatib, 11,4–11,6 oralig'ida kichik tebranishlar bilan harakatlanmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar Rossiya rubli bilan Xitoy yuani o'rtasidagi muvozanatli o'zaro ta'sirni aks ettiradi. Bu holat Rossiya va Xitoy o'rtasidagi barqaror savdo almashinuvi hamda Osiyo valyuta bozorlaridagi o'rtacha volatillik bilan bog'liq. Shuningdek, energetika resurslari narxlarining barqarorligi va tartibga soluvchi organlarning qo'llab-quvvatlashi kursni tor diapazonda ushlab turishga yordam bermoqda.

EUR-USD dinamikasi




➤ EUR/USD juftligi o'rtacha pasayishni namoyon qilmoqda


15 sentyabrdan 19 sentyabrgacha EUR/USD kursi 1,1918 dan 1,1792 gacha o'rtacha pasayish ko'rsatdi. Ushbu dinamika, AQSh dollarining mustahkamlanishi fonida, yevroga bo'lgan bosimning kuchayishini aks ettiradi. Bu esa monetar siyosat va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga oid kutilmalarga bog'liq. Ma'lumotlarga ko'ra, kichik tebranishlardan so'ng kurs asta-sekin pasaymoqda, bu esa bozorning Federal Rezerv tizimining keyingi qadamlariga va Yevrozonaning zaif iqtisodiy ko'rsatkichlariga oid kutilmalariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltin narxlar yangi rekord o'rnatdi

Birja oltin narxi tarixiy maksimumini yangilab, troyska unsiyasi uchun 3683,7 dollardan oshdi. Tahlilchilar fikricha, oltin narxlar AQSh Federal Rezerv tizimining siyosatini yumshatishi va dunyo markaziy banklarining ushbu qimmatbaho metallga barqaror xarid qilishlari tufayli qo'llab-quvvatlanmoqda. 2025 yilda, an'anaviy ravishda geosiyosiy va iqtisodiy xavflardan kapitalni himoya qilishning ishonchli vositasi sifatida hisoblangan oltin 40% dan ortiq qimmatlashdi. Oldinroq ekspertlar joriy yil oxirigacha oltin narxi geopolitik vaziyatning yomonlashishi va Federal Rezervning qat'iy siyosati sababli unsiyasi 4 ming dollardan oshishi mumkinligini prognoz qilgan edi.

➤ Brent bosim ostida

Juma kuni Brent neftining narxi barreli uchun 66,68 dollargacha tushdi. Taklif tomondan qo'llab-quvvatlash AQSh prezidenti Donald Trampning neft narxlarini pasaytirish tarafdori ekanligi haqidagi bayonotlari bilan cheklangan edi. Uning so'zlariga ko'ra, u Rossiyaga yangi sanksiyalar o'rniga arzon neftni afzal ko'radi. Bu Rossiyaning energetika infratuzilmasiga tahdidlar bilan bog'liq uzilishlar xavfini kamaytirdi. AQSh Energetika vazirligi statistikasi xom neft zaxiralariining eksport oshishi hisobiga keskin qisqarganini ko'rsatdi, ammo distillyatlar zaxiralari yanvardan beri eng yuqori darajaga yetib, talab borasidagi xavotirlarni kuchaytirdi.

➤ Yevropada gaz narxlar barqaror ta'minot fonida

Niderlandiya va Buyuk Britaniyada gazning ulgurji narxlar Norvegiyadan barqaror ta'minot va Yevropaga doimiy LNG yetkazib berilishi fonida pasaydi. TTF gaz hubidagi fyucherslar megavatt-soat uchun 37,6 dollargacha tushdi. Tahlilchilar talab va taklif muvozanati sababli cheklangan o'zgaruvchanlik bilan yonma-yon trend prognoz qilmoqda. Yevropadagi gaz zaxiralari 80,6% to'ldirilgan bo'lib, bu qish mavsumiga yetarli zahira ta'minlaydi. LNG yetkazib berishlar hamda Rossiyaning Arktik LNG-2 loyihasi Xitoyga gaz eksporti narxlarning pasayishiga bosim ko'rsatishda davom etmoqda.

Yangiliklar

Rossiya: Alfa-Bank korporativ mijozlar uchun «Multibank» xizmatini ishga tushirdi

Alfa-Bank yangi «Multibank» xizmatini taqdim etdi, bu korporativ mijozlarga turli banklardagi hisoblarini yagona raqamli platforma orqali boshqarish imkonini beradi. Xizmat ERP tizimlari va fintech hamkorlari bilan integratsiya qilingan bo'lib, balans va tranzaksiyalar tarixiga qulay kirishni ta'minlaydi. Kelajakda Alfa-Bank interfeysidan to'g'ridan-to'g'ri to'lov topshiriqlarini yuborish imkoniyati qo'shilishi rejalashtirilmoqda.

“Mir” kartalarini blokdan chiqarishdan bosh tortish

Rossiya va Turkiya o'rtasida “Mir” to'lov tizimini qayta ishga tushirish bo'yicha muzokaralar muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Rossiyaning Anqaradagi elchisi Aleksey Yerkhov blokdan chiqarish imkoniyatlari yo'qligini ma'lum qildi va Turkiyaga safar qilayotgan rossiyaliklarga naqd pulga tayyor bo'lishni maslahat berdi.

BNP Paribas Parijda innovatsion markaz ochdi

BNP Paribas Parijda bank sektori uchun sun'iy intellekt va mashinani o'rganish sohalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi innovatsion markazini ishga tushirdi. Markaz katta ma'lumotlarni tahlil qilish, moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish bo'yicha loyihalar ustida ishlaydi. Maqsad – mijozlarga xizmat sifatini va tezligini oshirishdir.

Kaspi.kz 2025 yil oxirigacha turk Rabobank sotib olishni \$106 mln evaziga yakunlaydi

Qozog'istonlik fintech kompaniyasi Kaspi.kz 2025 yil oxirigacha turk Rabobank A.Ş.ni \$106 million qiymatdagi katta xalqaro shartnomani yakunlashni rejalashtirmoqda. Bitim hozirda mahalliy regulyatorlardan ruxsat olish bosqichida turibdi.